E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

# O`ZGA GAPLAR VA ULARNING TURLARI

**Nabijonova Feruza**

Farg`ona davlat universiteti, o`qituvchi.

**Annotatsiya:** Bugungi kunda yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyatini, dunyoqarashini va so`zlashish madaniyatini yuksaltirish eng muhim masalalardan biridir. Shuningdek, ularning nutqlarini shakllantirish va adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda yetuk notiq qilib tarbiyalash ona tili fanining eng muhim vazifalaridan biridir. Ushbu maqolada o`quvchilarning nutqida ko`p uchraydigan o`zga gaplar, ularning turlari, og`zaki va yozma nutqda qo`llanilishi, imlosi, boshlang`ich sinf o`quvchilari nutqidagi o`rni va ahamiyati ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

**Kalit so`zlar:** O`zga gaplar, muallif gap, ko`chirma gap, nutq, o`zlashtirma gap, so`zlovchi, grammatika, yozma nutq, dialog.

**Аннотация:** Одним из важнейших вопросов на сегодняшний день является повышение духовного и интеллектуального потенциала молодого поколения, мировоззрения и культуры речи. Также формирование их речи и воспитание зрелых носителей в соответствии с нормами литературного языка является одной из важнейших задач науки о родном языке. В данной статье идет научное исследование иностранных слов, их видов, употребления в устной и письменной речи, правописания, их места и значения в речи учащихся начальной школы.

**Ключевые слова:** Другие предложения, авторское предложение, цитируемое предложение, речь, принятое предложение, говорящий, грамматика, письменная речь, диалог.

**Abstract:** One of the most important issues today is to improve the spiritual and intellectual potential of the young generation, worldview and speech culture. Also, forming their speeches and raising them to be mature speakers in accordance with the norms of the literary language is one of the most important tasks of the science of the mother tongue. In this article, there is a scientific study of foreign words, their types, their use in oral and written speech, spelling, their place and significance in the speech of elementary school students.

**Keywords:** other sentences, author's sentence, quoted sentence, speech, adopted sentence, speaker, grammar, written speech, dialogue.

O`zga gap — muallifning nutqiga kiritilgan boshqa bir shaxsning bayonotidir. O'zga gapli qurilmalar nutqdagi vazifasi, ohangi va tuzilishi jihatdan mustaqil tuzilmalar hisoblanadi. O'zga gapli qurilmalar nutq jarayonida boshqalarning fikr-mulohazasini bayon qilishda o'zga shaxs va so'zlovchi nutqining qorishuvi natijasida yuzaga keladigan sintaktik birliklardir. O'zganing gapi bu biror-bir shaxsning fikrini so`zlovchi o`z nutqida ishlatishi ya'ni muallif gapi orqali berilishidir.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarining nutqida ham dialog yoki boshqa nutqiy bayonotlarga qaraganda boshqa birovning nutqi juda ko`p ishlatiladi. Lekin ular aslida o`zga gap haqida nazariy ma'lumotga ega bo`lishmaydi.

Ma'lumki, o`zga gaplar nutqni boshqa bir insonga yetkazib berishda insonlar uchun asosiy yordamchidir. Bunday o`zga gaplardan katta-yu kichik birdek foydalanishadi. O`zga gaplar tuzilish jihatdan murakkab qurilma bo`lsa ham, xattoki boshlang`ich sinf o`quvchilari ham bundan keng foydalanishadi. Garchi, ularga bu davrda qo`shma gaplar haqida nazariy bilimlar berilmasa ham.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Boshlang`ich sinf o`quvchilari hali maktab yoshiga yetmasidan nutqlarida birovning gaplari ya'ni o`zga gaplardan foydalanadilar. Biroq, boshlang`ich sinf predmetlarining tarkibiga o`zga gap mavzusi kiritilmagan. O`quvchilar bu tushuncha haqida ma'lumotlarga ega bo`lmasdan muloqotlarida do`stlarining, ota-onasining, bobo-buvisining va boshqa yaqinlarining so`zlaridan foydalanadilar. Xattoki, maktab darsliklarida ham o`zga gapli qurilmalardan keng foydalanilgan. Misol uchun, 1-sinfga mo`ljallangan ona tili va o`qish savodxonligi darsligida quyidagi jumlalar keltirilgan:

VAQT QADRI

Bobo nabirasini

Chaqirar der: "Hoy Boqi,

Yorib qo`y shaftolini

Qishga bo`ladi qoqi"

Boqi der: "Jon bobojon,

Biroz o`ynab kelayin.

So`ngra kelib, siz aytgan

Ishlaringiz qilayin".

Boqivoy kech kirganda

Kirib keldi chang bo`lib.

Bobosi qarar unga

Asabi tarang bo`lib.

Boqi butun kunini

O`yin bilan o`tkazdi.

Oltinga teng vaqtini

Behudaga ketkazdi. Abdulla Po`latov1

Abdulla Po`latovga mansub ushbu she'rda chol va nabiraning o`zaro suhbati tasvirlangan. She'rda vaqtni behuda o`tkazmaslik haqida tarbiyaviy jihatlar yoritilgan bo`lsa, ta'limiy tomondan o`zga gapli qurilmalar orqali o`quvchilarga dialogik nutq tasvirlangan.

O`zga gaplardan og`zaki va yozma nutqda foydalanamiz. Yozma nutqda ular ko`proq dialoglar sifatida keladi. Bunday gaplarda o`zganing gapidan foydalanilib, bu gaplar nutqqa o`zgartirishsiz olib kirilishi ham mumkin, aksincha, biroz o`zgartirilgan shaklda qo`llanilishi ham mumkin. O`zga gaplar nutqqa o`zgartirilib kiritilsa ham lekin mazmuni o`zgarmaydi. Shunga ko`ra o`zga gaplar asosan ikki turli bo`ladi:

1) Ko`chirma gapli qo`shma gaplar.
2) O`zlashtirma gap.

Shakl va mazmun jihatdan nutqqa umuman o`zgartirilmasdan olib kirilgan birovlarning nutqi ko`chirma gaplar deyiladi. Bunday gaplar odatda muallifning gapi ya'ni so`zlovchining nutqi bilan birgalikda keladi. Shunga ko`ra ko`chirma gaplar ham o`zining ichida 2 turga

[1] "Ona tili va o`qish savodxonligi" 1-qism: 1-sinf uchun darslik/ I.Azimova va boshqalar.-Toshkent Respublika ta'lim markazi, 2021.-20-bet

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

bo`linadi: 1) o`zganing gapi ya'ni ko`chirma gap 2) so`zlayotgan shaxsning gapi ya'ni muallif gap.

Ko`chirma gaplar nutqda turlicha qo`llanilishi mumkin.

1. Ko`chirma gaplar ko`p hollarda muallif gapidan keyin keladi.

Masalan, Onam menga har doim shunday deb o`rgatadilar: "Hayot yo`lingni chizar ekansan qalamni hech qachon birovning qo`liga berma".

2. Ko`chirma gaplar muallif gapidan oldin kelishi ham mumkin.

Masalan, "Yaxshi narsalar ishonganingda, yaxshiroq narsalar sabr qilganingda, eng yaxshilari voz kechmaganingda keladi. Duo qil, ishon, sabr qil, voz kechma, sen uchun xayrlisi eng to`g`ri paytda keladi", —degan edi Jaloliddin Rumiy.

3. Ko`chirma gaplar ba'zi hollarda muallif gapning orasida ham keladi.

Masalan, "Jumladan, T.Bushuy, SH.Safarovlar til birliklari orasidagi munosabatlarni an'anaviy tarzda sintagmatik, paradigmatik va ierarxik munosabatga ajratgan holda, paradigmatik munosabatga quyidagicha ta'rif beradilar: "Assotsiativ yoki paradigmatik munosabatlar birliklarning ayrim xususiyatlari umumiyligi yoki o`xshashligi asosida muayyan guruhlarga bo`linib, munosabatga kirishuvidir".[2]

Ko`chirma gaplarning imlosi:

Ko`chirma gaplar yozma nutqda doimo qo`shtirnoq bilan yoziladi. Agar ko`chirma gap darak gap sifatida qo`llanilib, so`zlovchining nutqidan oldin qo`llanilsa, ko`chirma gap qo`shtirnoqqa olinadi va undan so`ng vergul va tire qo`yiladi. Tiredan so`ng muallif gapi yoziladi va oxiriga nuqta qo`yiladi.

Masalan:

"Baxtni kutmaydilar, uni yaratadilar", — deydilar ko`p odamlar.

Agar ko`chirma gaplar muallif gapidan keyin kelsa, muallif gapidan so`ng ikki nuqta qo`yiladi va ko`chirma gap qo`shtirnoq ichida yoziladi, qo`shtirnoq berkitilgach nuqta qo`yiladi.

Masalan, Uning hayotidagi maqsadi: "Ota-onasini rozi qilib, bolalarini baxtlarini ko`rish".

Agar ko`chirma gap muallif gapining o`rtasida kelsa, muallif gapdan so`ng ikki nuqta qo`yiladi, qo`shtirnoq ichida ko`chirma gap yozilib, vergul va tire qo`yiladi. Undan keyin yana muallif gapi davom ettirilib, nuqta bilan yakunlanadi.

Masalan, Narigi mahalladagi odamlarning aytishicha: "Po`lat o`g`irlik qildi", — deb mish-mish tarqatishmoqda ekan.

Shuning uchun ham yuqorida berilgan she'rda ham o`zga gaplar keltirilgan ko`chirma gaplarning yozilishida tire, ikki nuqta va qo`shtirnoqdan foydalanilgan. Ushbu she'r orqali o`quvchilar ko`chirma gaplarni yozilish tartibini ham o`rganib olishlari mumkin.

Boshlang`ich sinf o`quvchilari o`zga gap haqida qay darajada tushunchaga ega ekanliklarini aniqlash maqsadida tajriba o`tkazildi. Bunga ko`ra o`quvchilarga o`zga gap deganda hayolingizda qanday gaplar namoyon bo`lmoqda, tushunchalaringizni daftarga yozing degan topshiriq berildi. Shunda bolalar turlicha fikrlashlari va o`zga gap haqida turli xil tushunchaga ega ekanligiga guvoh bo`lindi. Masalan, bir o`quvchi o`zga gap deganda, men qo`shnimning gaplarini tushunaman deb yozgan bo`lsa, ikkinchi o`quvchi o`zga gaplar bu-qo`shni qishloqdagi odamlarning so`zlari deb yana bir o`quvchi o`zimdan tashqari boshqa barcha insonlarning gaplari o`zga gaplar hisoblanadi deb yozib o`tganlar.

Boshlang`ich sinf o`quvchilari ongida o`zga gap haqida to`liq to`g`ri tushunchalar shakllanmagan. Ularning ba'zilari o`zga gap haqida kichik yoshdagi bolalar bilmagan faqat katta yoshli insonlar tomonidan foydalaniladigan gaplar majmuini tushunadilar, ba'zilari esa o`zga gap bu boshqa qishloq yoki shaharda yashovchi insonlar so`zlashadigan til deb tasavvur qiladilar.

[2] Lutfullayeva D.E. "Assotsativ tilshunoslik nazariyasi"/Monografiya/-T:MERIYUS,2017. 23-bet

Lekin ular nutqlarida doimiy ravishda o`zga gaplarning barcha turlaridan foydalib keladilar. Ular o`zga gap haqida to`g`ri tushunchalarga ega bo`lib, dialoglarda kengroq foydalansalar, nutq va lug`at boyliklari oshib, dunyoqarashlari yanada kengayadi.

**Adabiyotlar:**

1. Ona tili va o`qish savodxonligi" 1-qism: 1-sinf uchun darslik/ I.Azimova va boshqalar.-Toshkent Respublika ta'lim markazi, 2021.
2. Lutfullayeva D.E. "Assotsativ tilshunoslik nazariyasi"/Monografiya/-T:MERIYUS,2017. 23-bet
3. Abdullayeva Q. va boshqalar. Savod o`rgatish darslari. T:O`qituvchi, 2012 y.
4. Qosimova K. va boshqalar. Boshlang`ich sinflarda ona tili o`qitish metodikasi fani dasturi. Toshkent, 1996.
5. Qizi, G. S., & Umarova, N. R. (2021). The use of anthroponyms and pseudonyms in alisher Navoi's gazelles. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *11*(9), 349-353.
6. Tillaboyeva, G., & Umarova, N. R. (2021). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA BADIIY TAXALLUSLARNING QO'LLANILISHI. *Студенческий вестник*, (13-5), 70-72.
7. Tillaboyeva, G. S. Q. (2022). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIDA "SHAXS" TUSHUNCHASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(2), 182-196.
8. Tillaboyeva, G. S. Q. (2022). TILSHUNOSLIKDA LIBOS NOMLARI. *Scientific progress*, *3*(4), 506-514.
9. Umarova, N. R. (2021). THE USE OF ARTISTIC ANTHROPONYMS IN THE POEMS OF ALISHER NAVOI. *Theoretical & Applied Science*, (5), 419-421.
10. Umarova, N. R. (2021). A linguistic approach to conceptual research. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, *10*(4), 62-66.
11. Dilfuza, S., Nabijonova, F., & Matlubaxon, A. (2022). TA'LIM VA O'QITISH NAZARIYASINING MUHIM JIHATLARI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, *2*(19), 366-372.
12. Nabijonova, F. (2022). Boshlangich sinflarda didaktik oyinlarning ahamiyati: Nabijonova Feruza. *Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi*, *1*(000006).
13. Nabijonova, F. (2022). BOSHLANGICH SINFLARDA OZGA GAPNING QOLLANILISHI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, *2*(19), 180-184.
14. НАБИЖОНОВА, Ф. ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ. *ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ Учредители: ООО" Институт управления и социально-экономического развития"*, (10), 90-92.
15. Набижонова, Ф. (2022). ОНА ТИЛИ ВА АДАБИЁТ ТАЪЛИМИНИНГ ТАРИХИ ВА ТАРАҚҚИЁТ ЙЎЛЛАРИ. *Мировая наука*, (10 (67)), 38-41.
16. Feruza, N. (2023). Characteristics of the Lessons of the Native Language. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, *2*(3), 32-36.
17. Feruza, N. (2023). DARS JARAYONIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH. *IQRO JURNALI*, *2*(2), 542-552.
18. Nabijonova, F. (2023). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARIGA GEOMETRIK ELEMENTLARNI O 'RGATISH METODIKASI. *Innovative Development in Educational Activities*, *2*(7), 402-408.
19. Vosiljonov, A. (2022). Basic theoretical principles of corpus linguistics. *Academicia Globe: Inderscience Research*, *3*(2), 1-3.
20. Vosiljonov, A. (2022). LINGVISTIK TADQIQOTLARDA KORPUS O 'RGANISH OBYEKTI SIFATIDA. *IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, *2*(11), 176-182.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

21. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGVISTIKA VA UNING TAHLILIY SHAKLLANISH TARIXI. *Science and innovation*, *1*(B8), 99-105.

22. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGUISTICS AND THE HISTORY OF ITS ANALYTICAL DEVELOPMENT. *Science and Innovation*, *1*(8), 99-105.

23. Vosiljonov, A., & Isaqova, X. (2023). EFFECTIVENESS OF MOTHER TONGUE EDUCATION IN THE PRIMARY GRADES. *International journal of advanced research in education, technology and management*, *2*(2).



WORDLY
KNOWLEDGE